XALQ DEPUTATLARI PAYARIQ TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-19-157-7-100-K/25 Payariq tumani

Payariq tumanining 2025-yil 4-chorak mahalliy budjet daromadlari va xarajatlarini balansliligini buzmagan holda ko‘paytirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi “O‘zbekiston mahallalari uyushmalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-402-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Budjet kodeksi”ning 127-moddasiga asosan, Xalq deputatlari Payariq tumani Kengashining yettinchi chaqiriq o‘n to‘qqizinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi “O‘zbekiston mahallalari uyushmalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-402-sonli qaroriga asosan tumandagi jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer solig‘i bo‘yicha undirilgan mablag‘larning (noturar joylar bo‘yicha undiriladigan mol-mulk va yer solig‘i bundan mustasno) 10 foizini mahalla jamg‘armasiga o‘tkazishdan yuzaga kelgan farqni qoplash uchun 2 187 536,0 ming (Ikki milliard bir yuz sakson yetti million besh yuz o‘ttiz olti ming) so‘m mablag‘ zarurligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2.O‘zbekiston mahallalar uyushmasi Payariq tumani bo‘limi tasarrufidagi mahallalarning “Mahalla jamg‘armasi”ga jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer solig‘i bo‘yicha undirilgan mablag‘larning (noturar joylar bo‘yicha undiriladigan mol-mulk va yer solig‘i bundan

mustasno) 10 foizini o‘tkazishdan yuzaga kelgan farqni qoplash uchun Samarqand viloyati iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi bilan kelishilgan holda, Xalq deputatlari Payariq tumani Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-2-019-7-100-K/24-sonli qarori 1-ilovasidagi 7-bandi hamda 2-ilovasidagi 9-bandidagi “Mahalla budjeti jamg‘armasi mablag‘lari” pozisiyasi Payariq tuman mahalliy budjetining 2025-yil 4-chorak daromadlari va xarajatlarini 2 187 536,0 ming (Ikki milliard bir yuz sakson yetti million besh yuz o‘ttiz olti ming) so‘m 1-ilovaga muvofiq oshirilsin.

3.Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari (A.Umirov) Payariq tumani mahalliy budjetining 2025-yil 4-chorak daromadlari va xarajatlari rejalariga tegishli o‘zgartirish kiritsin.

4.Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohatlar bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Maxammatov) va ijrosini ta’minlash tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Sh.Eshonqulov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **XUDAYBERDIYEV SHUNKOR FARMONOVICH**

Xalq deputatlari Payariq tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-19-157-7-100-K/25 -son qaroriga
1-ilova

A)Xalq deputatlari Payariq tumani Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-2-019-7-100-K/24-sonli qarori 1-ilovasidagi 7-bandi Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i pozitsiyasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

(ming so‘mda)

Soliq turi	Tasdiqlangan parametr	Parametrga kiritiladigan o‘zgarish so‘mmasi	Jami
Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	35 693 000	2 187 536	37 880 536

B)Xalq deputatlari Payariq tumani Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-2-019-7-100-K/24-sonli qarori 2-ilovasidagi 9-bandi “Mahalla budjeti” jamg‘armasi mablag‘lari pozitsiyasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

(ming so‘mda)

Xarajat turi	Tasdiqlangan parametr	Parametrga kiritiladigan o‘zgarish so‘mmasi	Jami
“Mahalla budjeti” jamg‘armasi mablag‘lari	3 085 000	2 187 536	5 272 536